

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
19-DEKABR
№:51
(66852)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Surat muallifi: Zuhra MUHSIMOVA

300-MAKTABDA
«O'YLA, IZLA, TOP!»

2-betda o'qiysiz

USHBU SONDA:

**HARBIYLIK
BIZLARGA
XOS**

3-bet

**HUNARLI
BOLA**

5-bet

**FUTBOLCHILAR
HAM KO'P
KITOB
O'QISHSIN!**

7-bet



YANA «SMARTFON» HAQIDA

Juda ko'plab o'quvchilarimiz smartfon haqida so'rashgan. Ayniqsa, kichkin-toylar smartfon bilan qiziqishmoqda. Smartfon – bu bitta uskunada joylashgan mobil telefon va shaxsiy cho'ntak kompyuteri. Ha, aziz o'quvchim, texnika jadallik bilan rivojlanmoqda. Tarixdan ma'lumki, zamon bilan hamnafas bo'lgan insonlar juda yuqori natijalarga erishganlar. Sizing smartfon bilan qiziqishingiz bizni quvontirdi.



Bolalar!

Maktab nafaqat bilim maskani, balki zavq-shavq, o'yin-kulgi, beg'ubor damlar, quvnoq lahzalar olami hamdir.

Poytaxtimizning navqiron Sirg'ali tumanidagi 300-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida o'tkazilgan «O'yla, izla, top!» mavzuidagi bir soatlik ochiq darsni kuzata turib, ana shu fikrlarni xayoldan o'tkazdik.

Dillari hayajonga to'la o'quvchilar uch guruhga bo'linib, o'zaro bellashdilar. Biz guruhlarining nomlanishi bilan ham qiziqdik. Xo'sh, nega uch guruhga uch buyuk ajdodlarimizning nomlari tanlangan? Bu shunchaki tasodifmi yoki bundan ko'zlangan biror aniq maqsad bormi? Savolimizga 3-«E» sinf rahbari,

tashabbuskor o'qituvchilardan biri Marhabo Xolboyevadan quyidagicha javob oldik:

– Maktab rahbariyati bugungi ta'lim tizimi talablaridan kelib chiqib, biz murabbiylar oldiga aniq vazifalar qo'yishgan va bu ishlarda ularning o'zlari – maktab rahbarimiz Nasiba Kamolova, ilmiy mudirlarimiz Marhabo Ziyovutdinova, Munira Yusupova yaqindan yordam berishmoqda. Savolingizga kelsak, biz ulug' bobolarimiz nomlarini aniq maqsad bilan



Mazkur ochiq dars qiziqarli savol-javoblarga, turli o'yinlarga boy bo'lgani bilan o'quvchilarga juda manzur bo'ldi.

300-MAKTABDA

«O'YLA, IZLA, TOP!»

tanladik. Alisher Navoiy bobomiz 4-5 yoshlarida kitob o'qishga qiziqqan, 12 yoshlarida ustozlarini qoyil qoldirgan; Abu Rayhon Beruniy bobomiz tabiatga qiziqqan, dunyo xaritasini chizgan, Yerning dumaloq ekanligini isbot etgan; Muso Xorazmiy esa algebra, algoritimga asos solgan.

Kelajakda o'quvchilarimiz orasidan ham ana shunday buyuk daholar yetishib chiqishini niyat qilgan holda uch yo'nalish bo'yicha ularni bellashuvga chorladik.

Suratlar muallifi: ZUHRA va ZUBAYDA



KO'RSHAPALAK PARVOZI

Dunyoda yaratganning mo'jizalari ko'p. Ko'rshapalak haqiqatan ham ko'rmas ekan. Xo'sh, u qanday ucha oladi? Olimlarning aniqlashlaricha, ko'rshapalaklar turli tovushlardan foydalanib, zulmat qo'ynida ham to'g'ri yo'l topa olishar ekan. Ma'lumki, turli ixtirolar tabiatga qarab yaratiladi. Ehtimol, bir kun kelib, Siz texnikalarni tovush orqali boshqarishni ixtiro qilarsiz?..



PORLAYVERGIN

Qo'llaringga tutqazganda ilk qalamni, Tanitganda Usmon, Fitrat va Cho'lponni, Sahifangda ochar yana buloq ko'zi, She'rilarimda madh etaman, «Tong yulduzi!»

Yurt farzandi asrar yer-u samosini, Boshda tutar bobosi-yu momosini, Bordir senga muxlislaring aytar so'zi, Porlayvergin doimo sen, «Tong yulduzi!»



Ko'zga surtar tuprog'ini shu Vatanni, Kerak bo'lsa fido aylar jon-u tanni, Dono, zukko o'zbeginning o'g'il-qizi, Salom yo'llar senga bugun «Tong yulduzi!»

Izhor etar yuraklarning dil so'zini, Yangratadi kelajakning ovozi, Yo'llaringga mushtiq bo'lib doim ko'zi, Xush kelibsan, deymiz senga, «Tong yulduzi!»

Marhabo XOLBOYEVA,
oliy toifali o'qituvchi,
3-«E» iqtidorli sinf rahbari

SOYABON

Soyabon – yomg'irpo'sh bundan ikki ming yillar avval ixtiro qilingan edi. 1425-yilda Amir Temur surati ishlangan miniatyurada ham soyabon aks ettirilgan. Ulug' Amirning ortidan borayotgan xizmatkor uning boshi uzra ko'k hoshiyali qizil soyabonni tutib bormoqda.

Aziz bolajonlar, siz ham ixtirolar qiling! Bilingki, sizning ixtiroingiz ming-ming yillar davomida insoniyatga xizmat qiladi.



Bektemir tumanidagi 293-maktabda shoir Muhiddin Omon hamda «G'uncha» jurnalining bosh rassomi Sarvar Farmonov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muhiddin Omon yangi ijod namunalardan o'qidi.

Rassom Sarvar Farmonov esa bolaligini xotirlab, o'quvchilik davrida chizgan rasmlarini bolalar nashrlariga yuborganini, bitta rasmi chop etilishini orzu qilib, jurnalning har sonini intiq bo'lib kutgani, hozir esa o'qib-o'rganib, katta rassomlarning o'g'itlariga quloq solib, o'zi ham rassom bo'lgani va «G'uncha» jurnalida ishlayotgani haqida gapirdi.

O'quvchilar o'zlari yod olgan she'rilaridan aytdilar. Husnora Omonboyeva chiroyli raqs ijro etdi, Ravshan Ro'ziyev ajoyib kuy chaldi, bolajonlar uchun bu kun esda qolarli bo'ldi.

SHAHNOZA tayyorladi

Zahro HASANOVA

YOSHLAR FESTIVALI

Namangan viloyatida «Kamolot» YOIH tomonidan «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatani!» shiori ostida yoshlar festivali o'tkazildi. Unda viloyatning shahar va tumanlaridan o'n besh mingdan ziyod yoshlar ishtirok etdilar.

Festival doirasida o'tkazilgan tadbirlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, taniqli olimlar, shoir va yozuvchilar, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, «Nihol» mukofoti, Prezident stipendiyasi sohiblari ishtirok etishdi.

Festival yakunida gala-konsert o'tkazilib, Harakatning dasturiy faoliyatini amalga oshirishda namuna bo'layotgan yetakchi yoshlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Mazkur festivalning tashkil etilishi yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari, milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini mustahkamlashda, shuningdek, Vatani ravnaqi uchun xizmat qiladigan fidoyi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

O'z muxbirimiz

Aziz o'quvchilar! Gazeta sahifalarini kuzatib borayotgan bo'lsangiz, harbiy o'quv maskanlarida ta'lim olayotgan bo'lajak harbiylar haqidagi maqolalar bilan tanishib borayotgandirsiz. Bugun e'tiboringizga bolalikdanoq harbiy bo'lishni orzu qilayotgan ayrim tengdoshlaringizning fikrlarini havola etmoqdamiz. Ularning beg'ubor orzulari siz, aziz bolajonlarni ham befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

O'zbekiston
Respublikasi Qurolli
Kuchlarining
20 yilligi oldidan

uzum

Azamatbek BAHODIROV, Yunusobod tumanidagi fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan 51-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi:

– Maktabda qizlarni xafa qilayotgan bolalarni ko'rsam, jahlim chiqib ketadi. Nega desangiz, o'g'il bolalar qizlarning, o'z opa-singlisi, onajonisi, qolaversa, o'z Vatanning himoyachisi bo'lishi kerak, deb hisoblayman. Katta bo'lganimda, dadamga o'xshab harbiy bo'lishni orzu qilaman. Harbiylar ham jismonan, ham aqlan kuchli bo'lishlari zarur, deyishadi. Shu sababli, darsdan bo'sh vaqtlarimda tennis to'garagiga qatnashaman. Yozgi ta'tilda ingliz tili, kompyuter to'garaklariga qatnashib, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan Diplom bilan taqdirlandim. Diplomimni oyijonim ko'rib: «Bu yutuqlaring kelajakdagi orzularing uchun pillapoya bo'lib xizmat qiladi», deganlarida xursand bo'lib ketdim va: «Katta bo'lsam, albatta, harbiy bo'laman, chunki harbiylik biz – o'g'il bolalarga xos», dedim.



HARBIYLIK BIZLARGA XOS

Abdulfarrux ABDUG'ANIYEV, Olmazor tumanidagi hind tiliga ixtisoslashgan 24-maktabning 3-«B» sinf o'quvchisi:

– Katta bo'lganimda, harbiy bo'lmoqchiman. Onajonim, o'z uyim, Vatanim uchun posbon bo'lish yagona orzuim. Harbiylar kuchli, jasur bo'lishlari bilan birga chet tillarini ham bilishlari zarur, deb o'ylayman. Shuning uchun ham ingliz tili to'garagiga qatnab, ustozim Ozoda opadan saboq olayman. 4-sinfni tamomlab, harbiy bilim maskanida o'qishni rejalarim qatoriga kiritib qo'ydim.

Kichkintoy Abdulfarruxning katta «reja»laridan hayratlanib, uning ustози Mashkura opa Rahmatullayevadan shogirdlari haqidagi fikrlarini so'radik:

– 27 yildan beri o'quvchilarga saboq berib kelaman. Ba'zida o'quvchilarimning gap-so'zlariga quloq solib, hayratlanaman. Bugungi o'g'il-qizlar vatanparvarlik ruhida kamol topayotgani ularning gap-so'zlaridan sezilib turadi. O'quvchilarning orzulari ham fikrimning yaqqol isbotidir. Kelajakda barcha shogirdlarim yurt koriga yaraydigan insonlar bo'lib yetishishlariga ishonchim komil.

Samandar EGAMBERDIYEV, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 205-maktabning 4-sinf o'quvchisi:

– Ba'zida dadamning jiddiyliklariga ularning harbiyliklari sababmi, deb o'ylab qolaman. Men ham harbiy bo'lishni xohlaganim uchun o'zimni jiddiy tutishga harakat qilaman. Dadam menga: «O'g'il bolalar Vatan posbonlaridir, posbonlar kuchli, sog'lom bo'lishlari zarur», deydi. Hozirdanoq a'lo baholarga o'qib, sog'lom bo'lishim uchun turli sport to'garaklariga qatnashni kanda qilmayapman.



Bolajonlar, tengdoshlaringiz fikrlari bilan tanishdingiz. Ular o'z orzulari sari intilib, to'garaklarga qatnab, chet tillarini o'rganayotgan ekanlar. Siz-chi? Kelajagingizni, o'zingizni qanday tasavvur qilyapsiz?

Qanday rejalar tuzib, unga qay darajada amal qilyapsiz? Bu boradagi fikrlaringizni biz bilan o'rtoqlashing. Maktublaringizni kutamiz!

Gulyuz ORIFJONOVA



USTOZ HAQIDA SO'Z

Muallim, sen kamolot ichra ko'zgasan, hayot ganjida dur-u bebaho!

Bu chiroyli ta'rif-u tavsiflarni ustozlarimizga nisbat qilamiz. Ularga har qancha ta'rif bersak oz, mehnati-yu zahmatini ta'riflashga so'z ojiz.

Uzoq yillardan buyon Respublika ixtisoslashtirilgan san'at litseyida samarali mehnat qilib kelayotgan Sabohat opa Mahkamova ham ana shunday mehridaryo ustozlardan biri. U Mirodil kabi yuzlab shogirdlariga tasviriy san'atdan saboq berib, ularning murg'ak qalblariga ezgulik urug'ini qadab kelayapti.

DO'STLARIM SONI ORTDI

«Inson borki, insonlarga yaxshilik qilishi, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zishi, dardmandlarning dardiga sherik bo'lib yashashi darkor». Ustozlarimizning bizga bergan o'g'itlari bu.

«Nogironlarni himoya qilish» kuni munosabati bilan ustozlarimiz Roziya opa, Shahnoza opa va tengdoshlarim bilan maktabimizda tahsil oluvchi Islombekning uyiga bordik. Xonadon sohiblari bizni xursand bo'lib kutib olishdi. Ustozlarimiz turli sovg'alar topshirganlarida, Islombekning ko'zlari quvonchdan porladi. U juda odobli va quvnoq bola ekan, biz bilan tezda til topishib ketdi. Ancha paytgacha turli mavzularda suhbatlashib o'tirdik. Uyga qaytar mahali esa ko'nglimizni allaqanday shodlik chulg'ab olgan edi. Men ota-onamga bu voqeani quvonch bilan so'zlab berdim. Ular:

– Barakalla, qizim! Bugun savob ishga qo'l uribsizlar. Ko'ngli kemtik insonlarga yordam berish, ularning ko'nglini ko'tarish eng xayrli ishlardan biridir. Asosiysi, do'stlaring soni yanada ortdi, – dedilar xursand bo'lib.

Endi men Islombekni tez-tez ko'rgan borib turaman!

Umidaxon KARIMOVA,
Sirg'ali tumanidagi 284-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi



Kitob talashayotgan bolalarga qarab, bir donishmandning: «Bolaning qanday tarbiya topishi biz kattalarga bog'liq!» degan gaplarini esladim.

BOLAGA QANDAY

SOVG'A

KERAK?

Bolalar kitob talashdi, dedingizmi?

Ha, shunday.

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 322-maktabga borayotib, uchrashuv qay tarzda kecharkin, degan xayolda edim. Ilm dargohi ostonasida bizni maktab rahbari Barno Turg'unova iliq qarshilarkan:

– Bolalarimiz ertalabdan sizlarni kutishyapti, – dedi dilkash ohangda. – Maktabimizda 950 dan ziyod o'g'il-qizlar tahsil olishmoqda. Ular bilan gaplashsangiz, naqadar bilimga chanchoq ekanliklariga amin bo'lasiz!

Maktab yo'laklari ozoda, oppoq devorlarda turli ko'rgazmali qurollar, plakatlarni, rasmlar osilgan,

biz keng, yorug' faollar zaliga kirganimizda, o'qituvchi va o'quvchilar bilan to'la edi.

– Bugun maktabimizning 4-9-sinf o'quvchilari bu yerga yig'ilishgan, – dedi direktorning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari Xolbibbi Xo'jaqulova. – Biz bunday ijodiy uchrashuvlarni tez-tez o'tkazamiz. Direktorimiz bizni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turibdilar.

Uchrashuv samimiy boshlandi. Dastlab, bolalar Konstitutsiyamizning 19 yilligi sanasiga bag'ishlangan turli chiqishlarni namoyish etdilar. So'ng, savol-javoblar boshlandi. Faol o'quvchilarga kitoblar sovg'a qildik. Sovg'aga ega bo'lgan o'quvchilarning quvonchini tushunsa bo'ladi, ammo kitob yetmay qolgan bolakaylarning tushkun kayfiyatini ko'rib, qaniydi, qo'limizdan kelsa-yu, ularning har biriga bittadan kitob sovg'a qilsak, degan o'y ko'nglimizdan kechdi. Menimcha, bolalarga ko'proq kitoblar sovg'a qilishimiz kerak. Kitob bolani nurli kelajakka yetaklaydi, Vatanni sevishga, ota-onani qadrlashga o'rgatadi. Donolar: «Kitob eng yaqin do'st!» deb bejiz aytishmagan.

O'z muxbirimiz.

Surat muallifi: FAZLIDDIN

Ushbu maktabdagi ibratli ishlar keyingi sonlarda yoritiladi

DEKABR – BOSHLANG'ICH TA'LIM FAN OYLIIGI

Mazkur oylik munosabati bilan respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarida fan oyligi o'tkazilyapti. Jumladan, poytaxtimizdagi qator ta'lim maskanlarida ham fan oyligiga bag'ishlangan tadbirlar, ochiq darslar bo'lib o'tyapti. Zero, boshlang'ich ta'lim nafaqat bilimlar, balki jamiyat taraqqiyotining ham poydevori hisoblanadi. Buni teran anglagan o'qituvchilarimiz Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda har bir darsni yanig' pedtexnologiyalar, ko'rgazmalar asosida o'tib, o'quvchilarga puxta bilim berishga harakat qilishmoqda.



KO'RKAMOBODDAGI KO'RKAM MASKAN

– Ta'lim muassasamiz Toshkent shahrining ko'rkam, obod mahallalaridan biri Ko'rkamobodda joylashgan, – deydi Uchtepa tumanidagi 197-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi, uslub birlashmasi rahbari, jonkuyar ustoz Mavjuda opa Arifjonova. – Jamoamizda ishlari nafaqat tuman, shahar, balki respublikada ham ommalashtirilgan fidoiy

ustoz-murabbiylar mehnat qilishadi. Ular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, bilim samaradorligini oshirish maqsadida ko'plab tadbirlar, fan oyligini o'tkazishadi.

Dekabr – boshlang'ich ta'lim oyligi ham uyushqoqlik bilan o'tkazilyapti. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur oyligni o'tkazish uchun tayyorgarlikni yil boshidanoq boshlab yuborganlar. Xatira Samiqova, O'g'iloy Oripova, Saodat Rajabova, Muqaddas Ismoilova kabi mehridaryo ustozlarimiz esa jamoamiz faxri sanaladilar. Ilg'or pedtexnologiyalarni tadbir qilyotgan Muattar Yoqubova, Shohida Ibragimova, Nilufar Rustamovalarning jonbozliklari tufayli fan to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Izlanuvchan, intiluvchan o'qituvchilarimizdan Muattar Yoqubova «Yil o'qituvchisi – 2011» tanlovining tuman bosqichida g'olib bo'ldi. Ustozlardan yana biri Dildora Yoqubova esa tuman miqyosida bo'lib o'tadigan «Yil o'qituvchisi» tanlovida o'z bilimlarini sinab ko'rmoqchi...

– Oylik mobaynida biz yanada ko'proq o'qidik, o'rgandik, – deydi 4-«G» sinf o'quvchisi Rahima Rahmatilayeva. – Men

rasm chizishga qiziqaman. Oylik doirasida o'tkazilgan «Kichik musavvir» tanlovida ishtirok etib, «O'lkamizda qish» nomli rasmim uchun birinchilikni qo'lga kiritdim.

4-«V» sinf o'quvchilari ham ustozlari Shohida opa Ibragimova boshchiligida oylikka o'zgacha hozirlik ko'rishdi. O'z qo'llari bilan ertak qahramonlarini yaratib, sahna ko'rinishi orqali bor mahoratlarini namoyish etishdi...

Shunday bilimli, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustozlarimiz qo'lida saboq olayotgan kichikintoylarimizning bilimdon, zukko o'g'il-qizlar bo'lib kamol topishlariga shubhamiz yo'q. *Feruza SOYIBJON qizi*



Biz tahsil olayotgan poytaxtimizdagi 132-umumta'lim maktabida ham boshlang'ich ta'lim oyligi qiziqarli tarzda o'tkazilyapti. Uning har bir haftasi o'zgacha nomlanib, reja asosida tadbirlar, ochiq darslar o'tkazyapmiz. Ustozlarimiz bilan bir qatorda o'quvchilarning ham oylikka puxta hozirlik ko'rishgani ochiq darslar davomida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, 2-, 3-, 4-sinf o'quvchilari tomonidan tashkillashtirilgan «Safda qo'shiq aytamiz», «Yo'l qoidasi – umr foydasi» mavzusidagi bellashuvlar, «Zumrad qish» nomli rasmlar tanlovlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Feruza Boboxonova, Nargiza Tojiyeva, Nodira Xoliqova, Adiba

BILIMLAR KALITI




Ilhomova kabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari oylikning yanada mazmunli, qiziqarli o'tishiga munosib hissa qo'shdilar.

– O'quvchilarimizning jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo'lib yetishishi har jihatdan biz boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bog'liqdir, – deydi ustozimiz Feruza Boboxonova. – Shunday ekan, bu mas'uliyat va yuksak vazifaning salmog'ini doimo his etib, mehnat qilishimiz lozim.

Maktabimizda o'tkazib kelinayotgan fan oyligini tufayli bilimlarimiz yanada boyib, tafakkurimiz kengayib boryapti. Buning uchun ustozlarimizdan behad minnatdormiz.

Munisa YOQUBJONOVA,
8-«A» sinf o'quvchisi



Dunyoga Shayxur rais – donishmandlar ustozlari hamda tibbiyot fanining otasi degan nom bilan tanilgan Abu Ali ibn Sino 980-yilda qadimiy Buxoroning Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan. Yevropada uni Avitsenna deb atashgan. Bu so'zdan hozirgi kunda dunyoda keng qo'llaniladigan «Meditsina» so'zi kelib chiqqan.

DONISHMANDLAR USTOZI

Ibn Sino Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shib, o'sha davrning eng mashhur olimlari darajasiga yetgan.

Ibn Sino taxallusi bo'lib, uning asli ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh bo'lgan. Uning otasi o'ziga to'q, boy-badavlat amaldorlardan biri bo'lgan. Husayn besh yoshga to'lganida, oilasi bilan Buxoroga ko'chib kelishadi. O'sha vaqtdan boshlab u ilm olishga bel bog'laydi. Husayn o'zining o'tkir zehni, xotirasining kuchliligi, betakror iste'dodi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan.

U Buxoro amiri Nuh ibni Mansurning kutubxonasidan foydalangan. Diniy ilmga ega bo'lib, 13 yoshlaridan

boshlang'ich matematika, mantiq, fikh, falsafa fanlarini chuqur o'rganib boshlagan. Yosh bo'lishiga qaramay, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiy saboqlarni ham qunt bilan o'rganadi va o'sha paytdanoq tabiblik bilan ham shug'ullana boshlaydi. 16-17 yoshlarida mashhur tabib bo'lib taniladi.

U Sharq mutafakkirlarining ilmiy asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimiy yunon tibbiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan, dunyoga mashhur Aristotel, Yevklid, Ptolemei, Galen, Gippokrat, Pifagor asarlarini ham qunt bilan o'qib-o'rganadi. Keyinchalik u o'sha davrlarni eslab: «Bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va

falsafaning barcha qismlarini qaytadan o'qib chiqdim. O'sha kezlarda men kechalari kam uxlab, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas edim. Agar biroz uyquga ketsam, tushimda ham o'ngimdagi o'sha masalalarni ko'radim», deydi.

Buxoro Qoraxoniylar tomonidan 999-yilda bosib olingach, Somoniylar davlati barham topadi. 1000-yilda ibn Sino Buxorodan chiqib ketadi va o'sha paytda ilm-ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazmga boradi. Bu vaqtda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyiga dunyoning mashhur olimlarini to'plab, ilmiy markaz – Akademiya tashkil etgan edi. Bu ilmiy markazga o'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qilardi. Ibn Sino ham o'sha mashhur Akademiyaga qabul qilinadi.

Bu ilmiy markazda Ibn Sino mashhur olim Abu Rayhon Beruniy rahbarligi ostida ishlash bilan birga, u bilan ilmiy bahs-munozaralar qiladi. Ibn Miskavayh, Abusahl Masehiy, Abulxayri Hammor, Abunasir ibn Iroq kabi zamonasining yetuk olimlari bilan ham tanishadi, hamkorlik qiladi. Xorazm davlati Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, bu ilmiy markaz olimlari ham tarqab ketadi. Ibn Sino ham Xorazmni tashlab ketishga majbur bo'ladi hamda Xuroson va Eronning turli shaharlarida sarson-sargardon hayot kechira bosh-

laydi. Nihoyat, Jurjon shahriga kelib, hokim Qobus ibn Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida taniladi. Bu yerda u mashhur shogirdi Abu Ubayd Jurjoni bilan tanishadi va unga tibbilardan saboqlar beradi. Uning yozgan asarlari soni 450 dan oshadi. Lekin bizgacha yetib kelgani 160 ga yaqin. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fittibb», «Kitob ush-shifo», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari asrlar osha insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, «Kitob al-qonun fittibb» asari butun dunyoda, jumladan, Yevropada juda mashhur bo'lgan. Uning «Tib qonunlari» nomi bilan mashhur bo'lgan bu asari qariyb 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Uning kitoblari o'sha paytdayoq lotin, Yevropa, Sharq tillariga tarjima qilingan. Ibn Sino o'z zamonasining yetuk shoirilaridan ham sanaladi. U fors she'riyatida ruboiy janriga asos solib, ko'plab she'rlar yaratgan. Ibn Sino dunyoga mashhur Umar Isfahoni, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, Baxmanyor ibn Marzbun, Yusuf Ilyoqiying singari ko'pgina shogirdlarni tayyorlagan. Hatto mashhur olim va shoir Umar Hayyom ham uning eng iste'dodli shogirdlaridan biri bo'lgan.

Istiqlol tufayli Ibn Sino hayoti va faoliyati yanada keng o'rganila boshlandi. Uning 12 jildidan iborat «Tib qonunlari» asari bir necha bor chop etildi. Ilm maskanlari, ko'chalar uning nomi bilan ataladi.

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist

Bu voqea yaqinda ro'y berdi:

Eng yaqin do'stlarimdan birining tug'ilgan kuni edi. Aksiga olib, ishim ko'payib ketdi. Hadeganda qo'lim bo'shay demasdi. Do'stim esa bu orada uch-to'rt bor qo'ng'iroq qildi. Oxiri chala qolgan yozuv-chizuvlarimni xatjildga solib, yo'lga tushdim. Katta ko'chadan do'stimnikiga burilishim bilan yomg'ir gorga aylanib gupillab yog'a boshladi. Do'stim Nuriddin darvoza oldida kutib turgan ekan, birgalashib hovliga kirdik. Ayvon oldidagi zinaga oyog'imni qo'yganimda, o'ng tomonga chayqalib ketdim. Avvaliga sirpanib ketdim, deb o'yladim. Keyin esa poyabzalimning poshnasi ajralib ketganiga ko'zim tushib, kayfiyatim buzildi. Uyga qandoq yetib olaman? Endi nima bo'ladi. Do'stimning qistovi bilan ichkariga kirdim. U ko'nglimni ko'targan bo'ldi:

– Do'stim, bafurja o'tiravering. Mushkulingizni o'g'lim bir zumda hal qiladi.


Bu gapdan xotirjam tortgan bo'lsam-da, yosh bolani ovora qilgim kelmadi.

– O'g'lingiz bemahalda ovora bo'lib yurmasin. O'zim bir nima qilarman...

– Ovorasi yo'q, siz bemalol o'tiravering, – deb do'stim qo'ymadi. Allamahalgacha gurunglashib o'tirdik. Uyga qaytar mahali poshnasi qoqilgan oyog'kiyimni ko'rib, ko'nglim yorishib ketdi. Bu

HUNARLI BOLA

(Voqeyi hikoya)



ishni do'stimning oltinchi sinfda o'qiydigan o'g'li bajarganini bilib, hayratim oshdi. Meni katta ko'chagacha kuzatib chiqqan do'stim o'g'li Davrondan minnatdor bo'lganimni ko'rib, izoh bergan bo'ldi:

– O'g'lim rostmana futbol to'pini olib bering, deb hol-u jonimga qo'ymadi. Olib beray desam, to'pni orqasidan yugurib darslardan qolib ketadimi, deb o'yladim. Oxiri qo'ymagach, olib berdim. Bir kuni uyga g'amgin kirib keldi. Katta

yoshdagi bolalar ham o'yinga aralashib, koptogini yorib qo'yishibdi. Bir tarafi xursand ham bo'ldim. Yetar shuncha o'ynagan. Keyin esa yana ko'nglim bo'lmadi. Qo'lidan yetaklab mahalla guzaridagi kosibxonaga olib bordim. Keksa usta Halim buva bir zumda koptokni yamab berdi. Shundan keyin Davron uch-to'rt bor ustaning oldiga yana koptogini ko'tarib boribdi. Usta bobo esa o'zing tikib ol, deb ko'rsatib bergan ekan, o'g'lim bir zumda yamashni o'rganib olibdi. Keyin ora-chira ustaga yordam

berish uchun ustaxonaga kiradigan bo'libdi. Usta bobo esa o'zining eski asboblari o'g'limga beribdi. Qo'ni-qo'shnilarining iltimosini bajarib, o'g'lim duo olib yuribdi.

Do'stimning o'g'li haqida allaqanday ichki quvonch, g'urur bilan gapirayotganini ko'rib, havasim keldi.

Yusuf OG'AY

FARIZANING YANGI KITOBI

Qambar OTA

Fariza AVEZOVA

qoraqalpog qizi.

Qoraqalpog'iston Davlat universiteti qoshidagi 1-akademik litseyning 1-bosqichida tahsil olayotgan bu iste'dodli tengdoshingiz gazetamizning eng faol muxbirlaridan sanaladi. 8 yoshidanoq ijod qilib kelayotgan Farizaning bolalar hayotidan yozilgan maqola, she'r va hikoyalari respublika nashrlarida muntazam e'lon qilinadi. Uning «Ajralmas do'stlar», «Baxtli qizman» nomli hikoyalar, she'rlar to'plamini tengdoshlari katta qiziqish bilan o'qishadi. Quyida uning yaqinda bosmadan chiqqan «Kundalik daftar» nomli kitobidan joy olgan hikoyalardan birini o'qiydiz.



TELEFON VOQEASI

Sinfda o'quvchilar ingliz tilidan test yozish bilan band edilar. Shu payt telefon qo'ng'irog'i eshitildi. Bu Gulaydaning telefoni. Yaqinda tug'ilgan kunida unga dadasi telefon sovg'a qilirdi. Bir necha kundirki, telefonini sinfdoshlariga maqtanib yuribdi. Darslarga tayyorgarligi ham biroq pasaygandek...

Gulaydaning qo'l telefonini bilan ovora bo'lib, test yozmay o'tirganini ko'rgan ustoz:

– Undan ko'ra testni tezroq yoz! – deya telefonini qo'lidan olib qo'ydi.



– Telefonimni qaytarib bering, – baqirdi Gulayda ustoziga.

– Sen menga ovozingni ko'tarmay, testni yoz! – koyib berdi ustoz. – Telefoningni esa sinf rahbaringdan olasan...

Shunda Gulayda birdan yig'lab yubordi. Jahl bilan o'rmdan turdi-da, o'qituvchining stoli ustida turgan telefonini olib, yugurgancha sinfdan chiqib ketdi...

Qani, aytinch-chi do'stlarim, u to'g'ri yo'l tudimi?

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

– G'alati kishi ekansiz-ku, janob, – dedi Peppi iljayib.

– Odamlar bu yerga dam olgani kelishgan. Birpas ko'ngilxushlik qilishdi, buning nimasi yomon?

Direktor g'azabdan ko'karib, gezarib tag'in xizmatkorlarini chaqirdi:

– Mana bu tasqarani zaldan chiqarib tashlanglar! Yana hunar ko'rsatmasin!

Ikki yigit yelib kelishdi: «Qani, bu yoqqa yur, buzg'unchi!» deya Peppining tirsagiga

– dedi Peppi, – kel, biz ham odamlarni bir xursand qilaylik, maylimi?

Sochlari hurpaygan begona qizning gapiga Elvira javob bermadi. Dorga ikki qo'llab osildi-yu, pastda uni kutib turgan direktor otasining bo'yniga qo'ndi. Direktor atrofqa qarab qichqirdi:

– Hoy, kim bor? Mana bu shayton qizni haydanglar! Necha marta aytaman senlarga!

Xizmatchilar narvondan chiqib,

chidamadi:

– Dor ipini bo'shatinglar, – dedi xizmatkorlariga. – Shunda bu qizning o'zi yerga qulab tushadi.

Bir xodim borib ipni bo'shatdi. Arqon halinchakka o'xshab qoldi.

– E, rahmat! – dedi Peppi kulib, – bu yaxshi halinchak ekan. Ana endi bir mazza qilamiz!

Peppi yerga tegay deb turgan arqonda nari-beri uchib, birpas o'ynadi-yu, oxiri joyiga borib o'tirdi. Unga hech kim yaqinlashmadi. Bu epchil qizni tomoshadan mahrum etishga birovning kuchi yetmagach, kim ham unga tegishsin, to'g'rimi?

Tomosha davom etdi. Sirk direktori o'rtaga chiqdi va o'tirganlarga murojaat qildi:

– Hurmatli xonimlar va janoblari! Endi sizlar tabiatning ajoyib mo'jizasiga guvoh bo'lasiz. Davraga mashhur polvon Adolfni taklif etamiz. Shu kungacha uning yelkasi biron marta yerga tegmagan. Marhamat qilib kutib olinglar!

(Davomi bor)

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi

yopishishdi. Peppi bo'lsa, kreslning tutqichlarini mahkam changallaganicha jimgina o'tiraverdi. Xodimlar Peppini o'rindiqdan uzib olish uchun toza urindilar, lekin kuchlari yetmadi. Oyoqlariga ikki xil uzun paypoq kiygan oriqqina, mallasoch bu qiz kresloga mixlanib qolgandek qilt etmasdi.

Kap-katta ikki yigit nozikkina bir qizaloqqa kuchlari yetmagach, uyalib izlariga qaytib ketdilar. Tomosha yana davom etdi. Musiqa sadolari yangradi. Sahnaga soyabon ko'targan dorboz qiz chiqdi. Uning ismi Elvira edi. Elvira quyondek chaqqon sakrab dorga chiqdi. Avvaliga mayda qadam tashlab, dorning u boshidan bu boshiga borib kela boshladi. Keyin arqonning o'rtarog'ida turib olib, turli hunarlar ko'rsatdi. Odamlar uni olqishlashdi.

Elvira dor ustida bir o'mbalog oshib, yana oyoqqa turdi-da, orqasi bilan yurib, narigi burchakdagi taxta maydonchaga borib to'xtadi. Bu yerda uni jilmayib Peppi kutib turardi.

– Tegirmon navbati bilan, o'rtoqjon,

Peppini sudrab tushmoqchi bo'ldilar. Biroq, tomoshabinlar shovqin solishdi:

– Tegmanglar u qizga! Uyam hunarini ko'rsatsin.

– To'g'ri! Bu sariq qiz balo ekan!

Direktor noiloj bo'ysundi. Peppi shunaqayam hunarlar ko'rsatdiki, Elviraning o'yini uniking oldida hech gap bo'lmay qoldi. U dorga bir oyog'ini ilib, boshini osiltirardi, maymundek a r q o n d a charxpalak bo'lib aylanardi, o'zini yerga tashlab, yana bir qo'llab dorga ilinib, tikka t u r a r d i . Tomoshabinlar uni gulduros qarsaklar bilan olqishlab turishdi.

Uning qilg'ini yo q t i r m a y kuzatib turgan direktor oxiri



Sa'dulla SIYOYEV tarjimai

Uydami yoki ishda, Yursalar yuz tashvishda, Meni-chi, avval boshda Qilarlar-ey nazorat.

Ne qilsam bilarlar, Tez tekshirib ko'rular. Telefonda so'rular, Qilarlar-ey nazorat.

Har ishim kuzatarlar, Ayb qilsam, tuzatarlar. To'g'ri yo'l ko'rsatarlar, Qilarlar-ey nazorat.



Onajonim – mehribonim, Men niholman, siz bog'bonim. Alla aytgan boshim uzra, Qalbi mehrga konim.

Ko'zim ochib sizni ko'rdim, Izingizdan shodon yurdim. Boshim uzra parvonasiz, Siz men uchun yagonasiz.

Dilda orzu qanot qoqar, Ko'zlaringiz kulib boqar. Qo'llarimdan tutayapsiz, Kelajagim kutayapsiz.

Muqaddas TO'XTAMURODOVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 299-maktabning 7-sinf o'quvchisi

O'tgan hafta poytaxtimizning «Chig'atoy» futbol bazasi sun'iy qoplamali maydonida «Spartak kubogi» deb nomlangan birinchi xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. Unda 1998-yilda tug'ilgan bolalar futbol jamoalaridan «Bunyodkor», «Lokomotiv», «Chig'atoy» va ROZK jamoalari ishtirok etdi.

«BUNYODKOR»

Bu jamoalarga Qozog'iston va Qirg'izistondan kelgan tengdoshlari raqib bo'ldilar.

Mazkur turnirga Marat aka Ismoilov bosh hakam etib tayinlandi.

Turnir oldidan ayrim muxlislarning, albatta, «Spartak» chempion bo'ladi, deya qilgan taxminlarini o'zining ikki jamoasi bilan qatnashgan yosh «Bunyodkor»chilar chippakka chiqarishdi. «Qaldirg'ochlar»ning «A» guruhida ishtirok etgan birinchi jamoa musobaqaning mutlaq g'olibiga aylandi.

Hal qiluvchi uchrashuvda maydonga tushgan «Spartak» bolalari «Bunyodkor»dagi tengdoshlari oldida o'z qoldilar. Birinchilik «Bunyodkor»chilarga,

TURNIR G'OLIBI



Parvozingiz beland bo'lersin, «Bunyodkor»chilar!

ikkinchilik «Spartak»chilarga, uchinchi o'rin «Lokomotiv»chilarga, to'rtinchi o'rin esa ROZKchilarga nasib etdi.

Darvoqe, mehmonlar haqida: ular guruhdan nariga o'ta olmadilar. Qozog'istonlik bolalar futbol jamoasi guruhda uchinchi o'rin bilan kifoyalanishgan bo'lsa, qirg'izistonliklar haqiqiy autsaydarga (oxirgi o'rin) aylandi.

Futbol maktabi tarbiyalanuvchilari quvonchiga sherik bo'lgan «Qizilqum»ning sobiq bosh murabbiyi Sergey Arslonov va xushovoz xonanda Abdulla Qurbonov g'oliblarga sovrinlar topshirdilar.

Shunday qilib, poytaxtda bo'lib o'tgan birinchi xalqaro musobaqa o'z nihoyasiga yetdi.

Sir emaski, mamlakatimizda bolalar futboli jadal rivojlanmoqda. Yosh futbolchilar tajribali murabbiylardan saboq olib, bugun yurtimizning har bir go'shasida o'z iqtidorlarini namoyish etmoqdalar. Ana shunday iste'dodlarni tarbiyalayotgan «Spartak» bolalar futbol maktabida «millionlar o'yini»ni shogirdlariga o'rgatayotgan murabbiy Sergey Arslonovning kitob haqidagi fikrlarini eshitib, to'g'risi, hayratlandik:

ning olti nafar tarbiyalanuvchisi bilan Kiyevga bordik. Ular u yerda murabbiylar ko'rigidan o'tishdi. Ikki haftalik imtihonlardan so'ng, ikki nafar shogirdim Kiyevning «Dinamo» klubi akademiyasiga qabul qilindi. 1996-yilda tug'ilgan



2-o'rinni band qilgan «Spartak» bolalar jamoasi hamisha muxlislar ishonchini oqlab kelishyapti.

FUTBOLCHILAR HAM KO'P KITOB O'QISHSIN!



– Jarohatim tufayli futbolchilik faoliyatimni erta yakunladim, – deydi murabbiy. – Hozir «Spartak» bolalar maktabida murabbiyman. Bolalar bilan ishlayotganimdan xursandman. Chunki ularning qalbi beg'ubor!..

Yaqinda maktabimiz-

yarim himoyachi Ismoil Jasurxo'jayev bugun Kiyevda tahsilni davom ettirishyapti. O'zim ham shu akademiyada tarbiyalanganman. Shuning uchun qadrdon dargohim bilan halihuz do'stona munosabatimiz bor.

– *Sergey Sergeevich, Javlonbek va Ismoilning Kiyev «Dinamo» klubi akademiyasiga qabul qilinishi haqida fikringiz.*

– Shu yili yozda «Dinamo»ning yoshlar jamoasi O'zbekistonga kelgandi. Turnirdan so'ng, ular bizga: «Ko'z ostimizga olib qo'rgan ana shu bolalarni olib boringlar», deb taklif kiritdilar. Shundan so'ng, maktabimiz direktori Miraziz Mirzaahmedov bilan birgalikda o'quvchilarimizni u yerga olib bordik.

– *Ayting-chi, akademiya shart-sharoitlar qanday?*

– Bu akademiya havas qilsa arziydi. U Kiyev yaqinidagi bahavo o'rmon ichida joylashgan. Akademiyaning o'nga yaqin ochiq va yopiq stadionlari bor. Shuning uchun tarbiyalanuvchilar

chap qanot himoyachisi Javlonbek Rahmonberdiyev va 1998-yilda tug'ilgan markaziy

yilning to'rt faslida ham mashg'ulotlarni bir xilda olib boradilar. Yotoqxona, oshxona, o'qish muassasasi haqida ham ijobiy fikrlar aytilish mumkin.

– *U yerga qaysi davlatlardan bolalar tahsil olish uchun keladilar?*

– Yevropaning yetakchi klublaridan qolishmaydigan mazkur dargohga amerikalik, afrikalik, janubiy amerikalik, braziliyalik bolalar kelib, futbolning sir-asrorlarini o'rganadilar. Safarimiz davomida klub prezidenti Igor Surkis qabulida bo'ldik. U o'zbek futbolida erishilayotgan yutuqlarga yuqori baho berdi, Javlonbek va Ismoil singari bolalardan kelajakda dunyo miqyosidagi futbol yulduzlari yetishib chiqishiga ishonch bildirdi.

– *Bo'lajak futbolchilarga maslahatlaringiz...*

– Har qaysi murabbiyning o'z usuli bor. Men ota-onalarga, bolangiz futboldan tashqari shaxmat-shashka bilan ham shug'ullansin. Yana ularning ko'p kitob o'qishini nazorat qilib boring, deyman. Chunki ko'p kitob o'qigan bola maydonda tez, to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadi. Shuningdek, bolaning tasavvuri boy bo'ladi, ayniqsa, erak kitoblarni ko'p o'qigan bolalarda. Bu esa yosh futbolchilar uchun juda muhim.

QOMUSIMIZ YOG'DUSI!

Shayxontohur tumanidagi 41-maktabda «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» deb nomlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda mahalla fuqarolar yig'ini raisi hamda Toshkent huquqshunoslik kolleji o'qituvchilari qatnashdilar. Tadbirni maktab rahbari Gulnoza Muzaffarova ochdi va mehmonlarni, ustozlarni, o'quvchilarni bayram bilan tabrikhladi. Toshkent huquqshunoslik kolleji o'qituvchisi Sirojiddin Hasanov so'zga chiqib, Konstitutsiyamizning 41-moddasiga sharh berdi. Yurtimizda yosh avlodga yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida gapirib, ulardan unumli foydalanish kerakligini uqtirdilar.

Maktab qoshidagi xor jamoasi a'zolari Vatan haqida qo'shiqlar kuyladilar. 7-, 8-sinf o'quvchilari tomonidan Konstitutsiyaning moddalarini sahna



ko'rinishlari orqali ijro etildi. Toshkent huquqshunoslik kollejidani Mahmudjon Yunusov so'zga chiqib, amaldagi Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarga izoh berdi. O'quvchilari-miz qomusimiz yillar osha xalqimiz uchun ishonch, qanot, najot, faxr, iftixor namunasi bo'lib qolishiga yana bir bor guvoh bo'ldilar.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Zulfiya G'ulomova tadbirni uyushtirishda bosh-qosh bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV

BILASIZMI?



Sigirning sut berishini, uni hamma sevib iste'mol qilishini ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin sut beradigan daraxt ham borligini hamma ham bilmasa kerak.

Venesuelada esa shunday daraxt o'sarkan. Bu daraxtdan sharbat ajralib chiqarkan. Uning masasi xuddi sigir sutiga o'xshab ketarkan. Odamlar har kuni bu daraxt tanasini yorib, o'sha sharbatdan chelaklab olib ketisharkan.



Merkuriy sayyorasidagi bir kun yer hisobiga ko'ra bir yilga teng kelar ekan.

Sayyoramizning havo qatlami (atmosfera) og'irligi 5.300.000 milliard tonnaga teng.

Biz har kuni sevib tomosha qiladigan Oynning diametri 3476 km.ga teng ekan.



Yorug'lik shunday tezlikki, u Yerdan Oygacha bo'lgan masofani 1,25 sekundda bosib o'tadi.

«Egizaklar tanlovi»ga biz kutgandan ham ko'proq maktublarni kelyapti. Buva-yu buvijonlar, ota-onalar, amma-yu xolalar olib kelayotgan fotosuratlar ham talaygina.

Kuni kecha tahririyatimizga TDSHI qoshidagi Olmazor akademik litseyi o'quvchilari Fotima va Zuhralar kirib kelishdi. Bir-biriga ikki tomchi suvdek o'xshash bu qizlarimizni biroz savolga tutdik: egizaklarning o'y-fikrlari, qarashlari, qiziqishlari bir xil bo'ladimi? Biri yoqtirgan taom ikkinchisiga ham yoqadimi? Ular ham boshqa opa-singillardek o'zaro kelisholmay qolishadimi?..

Fotima RAHMONOVA:

– Egizaklarning qiziqishlari bir xil bo'ladi, degan fikrga qo'shilmayman. Men kelajakda fors tili bo'yicha tarjimon bo'lmoqchiman. Bo'sh vaqtlarimda turli shirinliklar, salatlar, taomlar pishirishni yoqtiram. Barcha opa-singillar kabi biz ham ba'zan tortishib qolamiz. Lekin bir-birimizsiz turolmaymiz.

Zuhra RAHMONOVA:

– Men mazkur litseyning filologiya bo'limida arab tili yo'nalishi bo'yicha tahsil olaman. Bolaligimdan oq she'r va hikoyalar yozishga qiziqaman. Bo'sh paytlarimda badiiy kitoblarni o'qish eng sevimli mashg'ulotim.

Yana bir qiziq jihati shundaki, tobim qochsa, mendan keyin opamning ham, albatta, tobi qochadi...

Mana shunaga gaplar, tanlovimiz bahonasida egizaklar haqida qiziqarli ma'lumotlarga ham ega bo'ldik.

Sizdan ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan maktublarni kutib qolamiz.

Egizaklar



tanlovi

O'z muxbirimiz.
Surat muallifi: ZUHRA

XANDILAR



Hayvonot bog'ining xodimi topilmalar idorasiga qo'ng'iroq qilyapti:

– Fil qochib ketdi. Sizlarda emasmi?
– Belgilarini ayting...



– Dunyodagi eng «aqlsiz» jonivor qaysi, bilasizmi?

– Bilaman, u sigir. O'zi suv ichadi-yu, odamlarga sut qilish beradi.

AZIZA tayyorladi

TONG yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lg'in HAYTIOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Navbatchi:
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilmiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy,
Indeks: 100129,
Obuna indeksi: 198,
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 30714
Buyurtma N: J 3959